

## Ishlab chiqarish korxonalarida dars mashg'ulotlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-sonli Farmonining 3-bob 5-bo'limida, ishlab chiqarish korxonalarida dars mashg'ulotlari va talabalar amaliyotini samarali tashkil etish hamda Institutimizning 2019 yil 30 sentyabrdagi 6-majlis bayonining 12-bandiga asosan, ya'ni Institutda talabalarni 5+1 (besh kun institutda va bir kun ishlab chiqarishda) tizimi asosida o'qitishni joriy etish maqsadida, 5430500-Qishloq xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 2 kurs 3-guruh talabalarini, 2019 yilning 14 noyabr kuni "ETvaEJF" kafedrasida dotsenti R.Yunusov, Toshkent shahar markaziy magistrat elektr tarmoqlari korxonasiga qarashli "Qo'yliq" nimstansiyasiga olib borib "Elektrotexnik materiallar" fanidan mutaxassislar bilan birgalikda dars mashg'ulotlarini olib borishdi. Talabalar uchun bu dars mashg'ulotlari juda qiziqarli o'tdi. Talabalar o'zlari qiziqqan savolarga mutaxassislardan yetarlicha javoblar olishdi.



**"ET va EJF" kafedrasida dotsenti O'.Xaliqnazarov axboroti**

**Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**